

SUN'IIY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ORQALI PEDAGOGLARNING AXBOROT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Haytboyeva Mehriniso Nizomaddin qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

Mehrinisohayitboyeva1@gmail.com +99893 866 64 68

Kalit so'zlar: *Axborot madaniyati, sun'iy intellekt, bo'lg'usi pedagoglar, raqamli ta'lim, pedagogik texnologiyalar.*

Zamonaviy ta'lim tizimida bo'lg'usi pedagoglarda axborot madaniyatini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Raqamli transformatsiya jarayonlari, xususan, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining ta'lim sohasiga jadal kirib kelishi pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi, axborot bilan ishlash kompetensiyalari hamda akademik halollik tamoyillariga rioya etish darajasiga yangi talablarni qo'ymoqda.

O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda sun'iy intellekt sohasini rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligini ko'rsatadi¹⁰.

Axborot madaniyati - pedagoglarning zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, axborotni tanqidiy baholash, ilmiy manbalardan to'g'ri foydalanish hamda akademik halollik va etik me'yorlarga rioya etish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi.[1,5b] Xalqaro tadqiqotlarda sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limda qo'llanilishi o'rganishni shaxsiylashtirish, o'qituvchi faoliyatini optimallashtirish va ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish imkonini berishi ta'kidlanadi[2,15b]. Shu bilan birga, pedagoglarning SI texnologiyalariga tayyorgarligi yetarli bo'lmaganda, ushbu imkoniyatlardan to'liq foydalanish qiyinlashadi.

Mazkur tadqiqot bo'lg'usi pedagoglarda axborot madaniyatini shakllantirishning hozirgi holatini empirik jihatdan tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot Urganch davlat universitetida faoliyat yuritayotgan 100 nafar o'qituvchi ishtirokida o'tkazildi. Tadqiqotda miqdoriy yondashuv qo'llanilib, maxsus ishlab chiqilgan so'rovnoma orqali respondentlarning axborot manbalaridan foydalanish holati, sun'iy intellekt texnologiyalarini bilish va qo'llash darajasi, pedagogik faoliyatda raqamli vositalardan foydalanishi hamda akademik halollikka munosabati o'rganildi. Olingan ma'lumotlar deskriptiv statistika usullari asosida tahlil qilindi[3,6b].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilarning aksariyati axborot qidirishda an'anaviy manbalarga va umumiy qidiruv tizimlariga tayanadi. Ilmiy elektron bazalar va sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish darajasi esa nisbatan pastligicha qolmoqda[4,9b]. Respondentlarning faqat kichik qismi sun'iy intellekt texnologiyalaridan muntazam foydalanishini bildirgan. SI vositalari asosan dars konspektlari va o'quv materiallarini

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-oktabrdagi PF-159-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Farmoni.

tayyorlash maqsadida qo'llanilib, ta'lim jarayonini individuallashtirish, baholash va ilmiy-tadqiqot faoliyatida foydalanish imkoniyatlari yetarlicha ishga solinmayotgani aniqlandi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari akademik halollik va SI etikasi masalalariga yetarli e'tibor berilmayotganini ko'rsatdi. O'qituvchilarning aksariyati sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha qo'shimcha bilim va amaliy ko'nikmalarga ehtiyoj sezishini bildirgan. Bu holat pedagogik ta'lim tizimida sun'iy intellekt asosida axborot madaniyatini shakllantirishga qaratilgan tizimli yondashuv zarurligini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lg'usi pedagoglarda axborot madaniyatini shakllantirishda sun'iy intellekt asosidagi yondashuv muhim pedagogik resurs hisoblanadi. Sun'iy intellekt texnologiyalarini pedagogik ta'lim jarayoniga maqsadli va tizimli integratsiya qilish orqali raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash va akademik halollik ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Tadqiqot natijalari pedagogik oliy ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt asosida axborot madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan o'quv modullari, treninglar va amaliy mashg'ulotlarni joriy etish zarurligini asoslab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Holmes W., Bialik M., Fadel C. *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning*. — Boston, 2023.
2. Zawacki-Richter O., Marín V.I., Bond M., Gouverneur F. Artificial intelligence applications in higher education // *International Journal of Educational Technology in Higher Education*, 2019.
3. Luckin R., Cukurova M. Designing educational technologies in the age of artificial intelligence // *British Journal of Educational Technology*, 2023.
4. UNESCO. *Artificial Intelligence and Education: Guidance for Policy-makers*. — Paris, 2022.